



E-ISSN 2181-1466
9 772181 146004



ISSN 2181-6875
9 772181 687004

@buxdu_uz

@buxdu1

@buxdu1


www.buxdu.uz

3/2023

Научный вестник Бухарского государственного университета
Scientific reports of Bukhara State University



**BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI
ILMIY AXBOROTI**



3/2023

<https://buxdu.uz>

BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI ILMY AXBOROTI
SCIENTIFIC REPORTS OF BUKHARA STATE UNIVERSITY
НАУЧНЫЙ ВЕСТНИК БУХАРСКОГО ГОСУДАРСТВЕННОГО УНИВЕРСИТЕТА

Ilmiy-nazariy jurnal

2023, № 3

Jurnal 2003-yildan boshlab **filologiya** fanlari bo'yicha, 2015-yildan boshlab **fizika-matematika** fanlari bo'yicha, 2018-yildan boshlab **siyosiy** fanlar bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasining dissertatsiya ishlari natijalari yuzasidan ilmiy maqolalar chop etilishi lozim bo'lgan zaruruviy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan.

Jurnal 2000-yilda tashkil etilgan.

Jurnal 1 yilda 12 marta chiqadi.

Jurnal O'zbekiston matbuot va axborot agentligi Buxoro viloyat matbuot va axborot boshqarmasi tomonidan 2020-yil 24-avgust № 1103-sonli guvohnoma bilan ro'yxatga olingan.

Muassis: Buxoro davlat universiteti

Tahririyat manzili: 200117, O'zbekiston Respublikasi, Buxoro shahri Muhammad Iqbol ko'chasi, 11-uy.

Elektron manzil: nashriyot_buxdu@buxdu.uz

TAHRIR HAY'ATI:

Bosh muharrir: Xamidov Obidjon Xafizovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Bosh muharrir o'rinnbosari: Rasulov To'lqin Husenovich, fizika-matematika fanlari doktori (DSc), professor

Mas'ul kotib: Shirinova Mexrigyo Shokirovna, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Kuzmichev Nikolay Dmitriyevich, fizika-matematika fanlari doktori (DSc), professor (N.P. Ogaryov nomidagi Mordova milliy tadqiqot davlat universiteti, Rossiya)

Danova M., filologiya fanlari doktori, professor (Bolgariya)

Margianti S.E., iqtisodiyot fanlari doktori, professor (Indoneziya)

Minin V.V., kimyo fanlari doktori (Rossiya)

Tashqarayev R.A., texnika fanlari doktori (Qozog'iston)

Mo'minov M.E., fizika-matematika fanlari nomzodi (Malayziya)

Adizov Baxtiyor Rahmonovich, pedagogika fanlari doktori, professor

Abuzalova Mexriniso Kadirovna, filologiya fanlari doktori, professor

Amonov Muxtor Raxmatovich, texnika fanlari doktori, professor

Barotov Sharif Ramazonovich, psixologiya fanlari doktori, professor, xalqaro psixologiya fanlari akademiyasining haqiqiy a'zosi (akademigi)

Baqoyeva Muhabbat Qayumovna, filologiya fanlari doktori, professor

Bo'riyev Sulaymon Bo'riyevich, biologiya fanlari doktori, professor

Djurayev Davron Raxmonovich, fizika-matematika fanlari doktori, professor

Durdiyev Durdimurod Qalandarovich, fizika-matematika fanlari doktori, professor

Olimov Shirinboy Sharofovich, pedagogika fanlari doktori, professor

Qahhorov Siddiq Qahhorovich, pedagogika fanlari doktori, professor

Umarov Baqo Bafoyevich, kimyo fanlari doktori, professor

Murodov G'ayrat Nekovich, filologiya fanlari doktori, professor

O'rayeva Darmonoy Saidjonovna, filologiya fanlari doktori, professor

Navro'z-zoda Baxtiyor Nigmatovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Hayitov Shodmon Ahmadovich, tarix fanlari doktori, professor

To'rayev Halim Hojiyevich, tarix fanlari doktori, professor

Rasulov Baxtiyor Mamajonovich, tarix fanlari doktori, professor (Andijon davlat Pedagogika instituti rektori)

Eshtayev Alisher Abdug'aniyevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Boboyev Feruz Sayfullayevich, tarix fanlari doktori (O'zR FA tarix instituti yetakchi ilmiy xodimi)

Jo'rayev Narzulla Qosimovich, siyosiy fanlar doktori, professor

Qurbanova Gulnoz Negmatovna, pedagogika fanlari doktori (DSc), professor

Jumayev Rustam G'aniyevich, siyosiy fanlar nomzodi, dotsent

Quvvatova Dilrabo Habibovna, filologiya fanlari doktori, professor

Axmedova Shoira Nematovna, filologiya fanlari doktori, professor

Amonova Zilola Qodirovna, filologiya fanlari doktori (DSc), dotsent

Zaripov Gulmurot Toxirovich, texnika fanlari nomzodi, dotsent

MUNDARIJA * СОДЕРЖАНИЕ *** CONTENTS**

ANIQ VA TABIIY FANLAR * EXACT AND NATURAL SCIENCES *** ТОЧНЫЕ И
ЕСТЕСТВЕННЫЕ НАУКИ**

Norqulov J.F., Azimov R.B., Amirov A.A.	G'ildirak tishlariga ta'sir qiladigan eguvchi kuchlanishni tish yuzasi qattiqligiga bog'liqligini o'rganish va takomillashtirish	3
Tukhtaev B.J., Kanokova Sh.Z., Xudoyberdiyeva Sh.A., Olimov X.K.	Анализ средних поперечных импульсов частиц при столкновении Au+Au и Pb+Pb в сфере энергии (s_{nn}) ^{1/2} =62-5020 GeV	8
Masharipov S. I.	Hardy Littlewood Polya relation for nonlinear reflections	12
Umarov S.H., Hasanov N.Z., Hallokov F.K., Narzullaeva Z.M.	Effect of pressure and thermal expansion on the optical absorption edge and the deformation potential model in TLGAS ₂	16
Xayitova X.G'.	Ikkinchи tartibli matritsaviy model operatorning ba'zi spektral xossalari	23
Aliyeva T.A.	Features of the natural growth development of urban population in Nakhchivan economic region	29

TILSHUNOSLIK * LINGUISTICS *** ЯЗЫКОЗНАНИЕ**

Asadov T.H.	O'zbek tilidagi murakkab tarkibli ayrim affikslarning tabiat xususida (ravishga nisbat beriladigan affikslar misolida)	37
Azimov I.M.	Miyon Buzrukning adabiy til, istiloh masalalariga munosabati	42
Bozorova R.Sh.	Nemis tilida gidronimlarning kelib chiqish tarixi	48
Davlatova M.H.	Ikkilamchi predikat bilan ifodalanadigan rezultativ tuzilmalar turlari xususida	55
Fayzullayev O.M., Ergasheva G.R.	Lingvomadaniyatshunoslikning fan sifatida shakllanishi, rivojlanish bosqichi va sohani o'rganishga doir yondashuvlar	60
Shirinova M.Sh., Rzayeva Ch.V.	Kinofilmlar tilida evfemizmlarning tutgan o'rni va ahamiyati	64
Хидирова Г.Х.	Замонавий терминологияда терминнинг объектив таърифи, тавсифи ва чегарасини ажратиш муаммолари	69
Hamroyeva N.N.	Shaxslararo muloqot jarayonida dialogik diskursning o'rni va kommunikativ strategiyalar	76
Ismoilova D.R.	Language crimes in English language	81
Narzullayeva F.O.	Tilning nominativ va ekspressiv funksiyalarining o'rganilishi	85
Rabieva M.G'.	Olamning kontseptual manzarasi kognitiv tajribaning muhim komponenti sifatida	90
Rasulov Z.I., Sharopov Sh.Sh.	Kooperatsiya tamoyilining pragmalingvistikadagi o'rni	94
Uzakova L.A.	O'zbek va ingliz tillarida to'y bilan bog'liq leksik birliklarning lingvokulturologik tadqiqi: ingliz to'y marosimimlarini o'rganish	99
Xolova Sh.D.	"Avoir" fe'li ishtirokidagi inson his-tuyg'ularini ifoda etuvchi frazemalar tarjimasining o'ziga xosliklari	103
Xudoyev S.S.	O'zbek va nemis topishmoqlarida metaforik birliklarning antropotsentrik tadqiqi	108
Xusainova Z.Y.	Tabiiy tilni qayta ishlash (NLP)da stemming jarayoni tavsifi	113
Yusupova D.Y.	Euphemistic findings of the poet Halima Khudoiberdiyeva	120

Одилова Г.К.	Болалар адабиётида глюттоник дискурс таржимасида услуга маъно адекватлиги	126
Жумаев А.А.	Ўзбек ва немис бадиий матнларида орнитопоэтонимларнинг маъно оттенкалари	132
Murtazoyev O.N.	Intertekstuallikning tilshunoslikda qo'llanilishi	136

ADABIYOTSHUNOSLIK * LITERARY CRITICISM *** ЛИТЕРАТУРОВЕДЕНИЕ**

O'rayeva D.S., Adizova O.I.	Folklore in the context of modern culture	140
Eshonqulova G.T.	Badiiy asarda ma'noni implisit ifodalashning kommunikativ strategiyalari	149
Курбанов С.С.	“Ўткан кунлар” романида оқил оталар образи талқини	154
Muxammadova M.M.	"Ko'hkan" taxallusi bilan she'rlar yozgan Shayboniy hukmdor talqini	158
Ganieva O.Kh., Rajabova Z.T.	The concept of the motif of loneliness in 20th century American literature	163
Sultonova D.S.	Ingliz adabiyotida kriminal mavzudagi prozaik asarlar taraqqiyoti	167
Umarov U.A.	Characteristic features of hero archetype in the example of Harry Potter	171
Umurova N.R.	“Iqrornoma” va islom falsafasi	176
Urmonova N.M.	The deontology of translation and interpretation	181
Babayev O.A.	Jaloliddin Rumiy asarlarining arab tiliga qilingan tarjimalarda g'arb tarjimalari ta'siri	186
Бахронова М.А.	Бадиий адабиётда касалликлар рамзи	191
Бокарева М.А.	Пути развития русского реализма рубежа xx-xxi веков: от соцреализма до экзистенционального постреализма	196
Жамилова Б.С.	Ўзбек ва турк болалар адабиётидаги муштарак туйғулар	203
Nuritdinova Sh.S.	Hamza Imonberdiyev she'riyatida ramziyilik va erk motivi ifodasi	210
Ражабова Р.З., Ражабова Г.З.	Эртак жанри стилизациясининг асослари ва тараққиёт хусусиятлари	215
Usmonova Z.H.	Rey Bredberining “Marsga hujum” (“Марсианские хроники”) asarida tarjima xususiyatlari va tarjimon uslubi	221
Sadigova N.E.	Romanticism of Byron and his work “Cain”	227

MATNSHUNOSLIK VA ADABIY MANBASHUNOSLIK * TEXTOLOGY AND LITERARY SOURCE STUDY *** ТЕКСТОЛОГИЯ И ЛИТЕРАТУРНОЕ ИСТОЧНИКОВЕДЕНИЕ**

Maqsudova N.U.	Ziyovuddin Haziniy she'rlarining manbalari	233
“NAVOIY GULSHANI”		
Ражабова М.Б.	Риёву ужбу ҳасад дафъин эт ...	237

PEDAGOGIKA * ПЕДАГОГИКА *** PEDAGOGICS**

Bahronova B.B.	Abdurauf Fitratning axloqiy-tarbiyaviy qarashlari	240
-----------------------	---------------------------------------------------	-----

TARIX * ИСТОРИЯ *** HISTORY**

Muminov D.A.	Samarqandga evakuatsiya qilingan sanoat korxonalari va ularning faoliyati	244
Raxmatulloyev M.X.	Mustaqillik yillarida O'zbekistonda ommaviy axborot vositalarining tarixi va rivojlanish bosqichlari	249
Xakimov J.N.	Buxoro amirligi va Rossiya imperyasining savdo-sotiq munosabatlarining yo'lga qo'yilishi	253

LINGVOMADANIYATSHUNOSLIKNING FAN SIFATIDA SHAKLLANISHI, RIVOJLANISH BOSQICHI VA SOHANI O'RGANISHGA DOIR YONDASHUVLAR

Fayzullayev Otobek Muhammadovich,

Buxoro davlat universiteti

Tarjima nazariyasi va lingvodidaktika kafedrasи o'qituvchisi, dotsent

o.m.fayzullaye@buxdu.uz

Ergasheva Gulyora Rapqatjon qizi,

Buxoro davlat universiteti 2-bosqich magistranti

g.r.ergasheva2022@buxdu.uz

Annotatsiya. Hozirgi globallashuv, integratsiyalashuv va madaniyatlarning aralashuvi yuz berayotgan davrda turli xalqlarning tili va madaniyatini o'rganish, ularni qiyosiylash qilish dolzarb vazifalardan biri sanaladi. Bu masalarni hal qilish uchun nafaqat ma'lum bir millat tilini, balki uning madaniyatini o'rganish ham muhim hisoblanadi. Ko'p yillik izlanishlar va taraqqiyot natijasida tilshunoslikda XX asrning oxirlariga kelib yangi soha "Lingvomadaniyatshunoslik" vujudga keldi va "til madaniyat bilan bog'liq bo'lib qolmasdan, uning o'z madaniyatida kelib chiqqan va uni ifodalaydigan vositadir" dega faraz qabul qilinadi boshlandi. Shu bilan bir paytda til madaniyatning yaratilish vositasi, rivojlanishi, matnlar ko'rinishida saqlanishi va uning tarkibiy qismi ham hisoblanadi.

Kalit so'zlar: linvomadaniyatshunoslik, lingvokulturologiya, til, madaniyat, etnolingvistika, sotsiolingvistika, lingvomamlakatshunoslik, rivojlanish bosqichlari, lingvokulturologik maktablar, lingvomadaniy birliklar.

Аннотация. В нынешний период глобализации, интеграции и смешения культур одной из актуальных задач является изучение языка и культуры различных народов, их сравнительный анализ. Важным условием решения этих вопросов является изучение не только языка той или иной нации, но и её культуры. В результате многолетних исследований и разработок к концу двадцатого века в лингвистике возникла новая отрасль "лингвокультурология", и стала приниматься гипотеза о том, что "язык, не оставаясь связанным с культурой, является средством её происхождения и выражения в собственной культуре". При этом язык является средством создания, развития, сохранения культуры в виде текстов, а также её составной частью.

Ключевые слова: лингвокультура, лингвокультурология, лингвокультурология, язык, культура, этнолингвистика, социолингвистика, лингвострановедение, этапы развития, лингвокультурологические школы, лингвокультурные единицы.

Annotation. One of the urgent tasks is the study of the language and culture of different people, their comparative analysis during the current period of globalization, integration and interference of cultures. An important condition for solving these parables is the study not only of the language of a particular nation, but also of its culture. As a result of many years of research and development, by the end of the 20th century, a new field in linguistics "Linguocultural science" arose, and the hypothesis that "language, without becoming related to culture, is a tool that originates in its own culture and represents it" began. At the same time, language is a means of creation, development of culture, preservation in the form of texts, and is also a component of it.

Keywords: linguistic and cultural studies, language, culture, ethnolinguistics, sociolinguistics, stages of development, linguoculturological schools, linguoculturological units.

Kirish. Uzoq yillar mobaynida til va madaniyat o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik muammosi ko'pchilik olimlar o'rtasidagi munozaralarga sabab bo'ldi. Ularning ayrimlari til madaniyat bilan yaxlitning bir qismi sifatida bog'liq desa, ba'zilari til faqat madaniyatni ifodalash shakli deb hisoblashadi.

Mavzuga doir adabiyotlarning tahlili. Turli millatga mansub olimlar tomonidan soha rivojiga turlicha hissa qo'shilgan, jumladan, ingliz tilshunos olimlari Judith M., Thomas N., Intercultural communication in contexts", Geertz.C. The interpretation of culture, Vorobyov V.V. Лингвокультурология в кругу других гуманитарных наук, Маслова В.А. Лингвокультурология: Учеб. пособие для студ.

высш. Учеб Красных В.В. Этнопсихолитгистика и лингвокультурология, Телия В.Н. Русская фразеология: Семантический. Прагматический и лингвокультурологический аспекты.

Tadqiqot metodologiyasi. Lingvomadaniyat tilshunoslikning mustaqil yo'nalishi sifatida XX asrning 90-yillarida vujudga kelgan. "Linguaculture", ya'ni "Lingvokulturologiya" atamasining kelib chiqishi haqida esa turli xil qarashlar mavjud. Ingliz tilida faoliyat yuritgan inglizzabon olimlarning fikricha, lingvomadaniyat tushunchasi amerikalik antropolog Maykl Eger tomonidan yaratilgan bo'lib, tilning madaniyat bilan bog'liqlikda rivojlanishi demakdir. M.Eger "language Shock: Understanding the culture of conversation" kitobida foydalangan. Shuningdek, *Linguaculture* atamasiga keyinchalik boshqa bir amerikalik tilshunos va antropolog Paul Friderix tomonidan *Linguaculture* atamasiga aylantirilgan deb taxmin qilinadi. M.Eger lingvomadaniyatni til va madaniyatni bog'lovchi ip sifatida talqin qiladi. Bundan tashqari uning qayd etishicha, til va madaniyat barcha zamonlarda ham bir-biri bilan chambarchas bog'liq bo'lgan va tilni madaniyatdan ayri holda o'rganishning imkoniy yo'q. Shu sababli bir millat tilini o'sha millatning madaniyatini o'rganmasdan to'laqonli ravishda o'rganib bo'lmaydi. Olim Lingvomadaniyatni 2 ta madaniyat(LC1 – Source languaculture hamda LC2 – Target languaculture)ning bog'liqligi sifatida izohlaydi. Lingvomadaniyat asosan tilshunoslari tomonidan o'rganiladigan soha bo'lgani uchun bunda ikki til ikki madaniyat bir-biri bilan taqqoslanadi va solishtiruv natijasida kelib chiqqan yangiliklar, tilshunos yoki tarjimon uchun hayratlanarli holatlari Egerning fikricha, *Rich points*, ya'ni o'rganilayotgan madaniyatning kuchli jihatni deb e'tirof qilinadi. Odamlar bu kuchli jihat bilan o'zlariga tushunarsiz bo'lgan va o'z madaniyatida duch kelmagan holatlarda to'qnashadilar. Bunday holatlari faqat tilda emas, kundalik hayotda ko'p kuzatiladi. O'z madaniyati va o'zga madaniyat o'rtaida yuzaga kelgan bu katta bo'shliq Culture shock deb ataladi [4, b.470].

Shuningdek, ba'zi boshqa tadqiqotchilarning fikriga ko'ra, "lingvokulturologiya" lotincha lingua 'til", cultus "hurmat qilish, ta'zim qilish", yunoncha "ilm, fan" degan ma'nolarni anglatib, ushbu termin V.N.Teliya rahbarligida Moskva frazeologik maktabi asoschilari Yu.S.Stepanov, A.D.Arutyunova, V.V.Vorobyov, V.Shaklein, V.A.Maslova tomonidan olib borilgan izlanishlar bilan bog'liq ravishda paydo bo'lgan[10.b, 286].

V.A.Maslovaning ta'rifiga binoan, lingvomadaniyatshunoslik bu – "Tilshunoslik va madaniyatshunoslik chorrahasida vujudga kelgan tilshunoslikning bir bo'limidir"[8.b,35-36]. Bundan tashqari, "Madaniyatshunoslik va tilshunoslik, etnolingvistika va madaniy antropologiya ilmiy tadqiqotlar natijalarini o'zida mujassam etgan bilimlarning integral sohasi"[10.b,286].

V.N.Teliya ham lingvomadaniyatshunoslikni etnolingvistikating bir qismi sifatida hisoblab, uni "til va madaniyatning o'zaro sinxron ta'siridagi muvofiqlikni o'rganish va tavsiflashga bag'ishlangan fan" deb izohlagan [10.b, 217-218].

V.V.Krasnixning ta'kidlashicha, lingvomadaniyatshunoslik "Til va nutqda madaniyatning namoyon bo'lishi. Aks etishi va fiksatsiyasini o'rganuvchi fan bo'lib, dunyoning milliy manzarasini, lingvistik ongini, mental-lingualni murakkab o'rganish bilan bevosita bog'liq"dir[9.b, 12].

Tilshunoslikda XX asrning oxiriga kelib "til madaniyat bilan bo'qliq bo'lib qolmasdan, balki uning o'z madaniyatida o'sib chiqqan va uni ifodalaydigan vositadir" degan faraz qabul qilina boshlandi. Chunki til vositasida madaniyatning moddiy va ma'naviy asarlari yaratiladi. Aynan shu g'oya asosida lingvokulturologiya fanning yangi, maxsus sohasi sifatida XX asrning 90-yillarida vujudga keldi. Lingvokulturologiya tilshunoslikdagi antroposentrik paradigmang mahsuli bo'lib, u so'nggi yillar davomida rivojlanib kelmoqda. V.A.Maslova lingvokulturologiya rivojlanishini uch davrga ajratadi:

1. Fanning shakllanishiga asos bo'lgan dastlabki tadqiqotlarning yaratilishi;
2. Lingvokulturologiyaning alohida tadqiqot sohasi sifatida rivojlanishi;
3. Lingvokulturologiyaning fundamental, mustaqil fan sifatida vujudga kelishi.

XX asrning oxiriga kelib Moskvada to'rtta lingvokulturologik maktab vujudga keldi:

1. Yu.Yu. Stepanov maktabi. Bu maktabning maqsadi madaniyatning davomiyligini diaxron nuqtayi nazaridan tasvirlashdir. Yo'nalish turli davrlarda yaratilgan matnlar yordamida, ya'ni tilning faol egasi emas, balki tashqi kuzatuvchisi sifatida ish bajaradi.

2. N.D.Arutyunova maktabi. Ushbu maktab turli xalqlar va davrlarga oid matnlardagi umummadaniy terminlarni tadqiq etadi. Mazkur madaniy terminlar ham tilning faol egasi emas, balki tashqi kuzatuvchisi nuqtayi nazaridan o'rganiladi.

3. V.N.Teliya maktabi. U Rossiya va xorijda frazeologizmlarni lingvokulturologik tadqiq qilish bilan shuhrat qozongan maktab hisoblanadi.V.N.Teliya va uning shogirdlari lisoniy mohiyatlarni jonli til egasining refleksi nuqtayi nazaridan tadqiq qilishgan, ya'ni bu madaniyat semantikasini bevosita til va madaniyat subyekti orqali egallashga qaratilgan yo'nalishdir.

4. V.V.Vorobyov, V.M. Shaklein maktabi. Ular Ye.M. Vereshchagin va V.G.Kostomarovlarning ta’limotlarini rivojlantirishdi.

XXI asrning boshlariga kelib lingvokulturologiya jahon tilshunsoligidagi yetakchi yo’nalishlardan biriga aylandi. Lingvokulturologiya tilda va diskursda o’z aksini topgan va mustahkamlangan xalq madaniyatini o’rganadi.

Hozirgi tilshunoslikda lingvomadaniyatshunoslikning nazariy va uslubiy tushunchalari V.V.Vorobyovning “Lingvokulturologiya” monografiyasida aniq yoritilgan. Ushbu monografiyada muallif lingvomadaniyatshunoslikni bir necha jihatlarda izohlaydi:

- bu sintezlovchi tipdagi ilmiy fan, madaniyat va filologiyani o’rganuvchi fanlar orasidagi chegara;
- lingvomadaniyatshunoslikning asosiy obyekti – madaniyat va tilning faoliyat ko’rsatish jarayonidagi munosabati va o’zaro ta’siri va bu ta’sirning yagona tizimli yaxlitlikdagi talqinini o’rganish;
- lingvomadaniyatshunoslikning predmeti – jamiyat borligining til aloqasi tizimida takror ishlab chiqariladigan va uning madaniy qadriyatlariga asoslangan milliy shakllari, dunyoning lisoniy manzarasini tashkil etuvchi barcha narsalar;
- lingvomadaniyatshunoslik yangicha fikrlash tomonidan ilgari surilgan madaniy qadriyatlarning yangi tizimiga, jamiyatning zamonaviy hayotiga, fakt va hodisalarни to’liq va xolisona talqin qilishga asosiy e’tiborni jaib qiladi;
- xalq madaniyatini obyektiv, to’liq va yaxlit talqin qilish lingvomadaniyatshunoslikdan xalq madaniyatining uning tilida, ularning dialektik o’zaro ta’siri rivojlanishida tizimli tasvirini talab qiladi.

Yuqorida berilgan fikrlarga asoslangan holda, V.V.Vorobyov tilshunoslik va madaniyatshunoslik chorrahasida vujudga kelgan lingvomadaniyatshunoslik ma’lum bir milliy-madaniy hamjamiyati til shaxsining ma’naviy qadriyatları va tajribasini ma’lum bir shaklda shakllangan majmuasini o’rganadigan yangi filologik fan bo’lib, eng avvalo, jonli kommunikativ jarayonlarni va ularda o’rgatilayotgan lingvistik iboralarning xalqning sinxron harakat qiluvchi mentaliteti bilan bog’lanishini o’rganadi va ta’limning tarbiyaviy va intellektual vazifalarini bajarilishini ta’kidlagan [7. b, 77].

Til, madaniyat, etnosning o’zaro aloqasi masalasini o’rganish fanlararo muammo hisoblanadi. Mazkur muammoning yechimini falsafa, sotsiologiyadan tortib, etnolingvistika va lingvokulturologiyagacha bo’lgan bir necha fanlarning birgalikdagi sa’y-harakatlari bilangina hal qilish mumkin. Lingvokulturologiya etnolingvistika va sotsiolingvistika bilan chambarchas aloqadadir. Hatto V.N.Teliyaning fikriga ko’ra, lingvokulturologiya etnolingvistikaning tarkibiy qismidir. Ammo lingvokulturologiya ham, etnolingvistika ham o’z mohiyatiga ko’ra alohida fanlardir.

Sotsiolingvistika tilshunoslikning tilni va uni mavjud bo’lgan ijtimoiy sharoitlar bilan bog’liqligini o’rganadigan sohasi bo’lib, bu soha ham lingvokulturologiyan fani bilan bog’liqdir.

Lingvokulturologiyani Lingvomamlakatshunoslikdan ham ajratish lozim. *Lingvomadaniyatshunoslik* va *lingvomamlakatshunoslik* o’rganish obyektlariga ko’ra bir-biridan farq qiladi. Lingvomamlakatshunoslik tilda o’z aksini topgan realiyalarni o’rganadi.

Lingvokulturologiya *etnopsixolingvistika* bilan ham o’zaro bog’liqdir. Etnopsixolingvistika nutqiy faoliyatda muayyan an’analar bilan bog’liq muomala elementlarining qanday paydo bo’lishini, turli til egalarining verbal va noverbal muloqotidagi farqlarni o’rganadi. Etnopsixolingvistikaning asosiy tadqiqot metodi assotsiativ eksperiment bo’lsa, lingvokultirologiya o’rniga ko’ra tilshunoslik va madaniyatshunoslikning turli metodlaridan foydalanadi.

Lingvokulturologiyaning predmeti o’zaro aloqada bo’lgan til va madaniyat hisoblanadi. Lingvokulturologiya madaniyatshunoslik va tilshunoslik kesishgan nuqtada shakllangan tilning tadqiqining yangi sohasidir. Lingvokulturologiya madaniyat va tilning o’zaro aloqasini, ta’sirini, tilda o’z aksini topgan xalq madaniyatining ko’rinishlarini tadqiq etadi. Bundan tashqari lingvomadaniyatshunoslikning predmeti sifatida madaniyatda ramziy, obrazli, metaforik ma’no kasb etgan va natijalari inson ongida umumlashtirilib mif, afsona, folklor va diniy diskurslarda, poetik va prozaik badiiy matnlarda, frazeologizmlarda, metaforalarda va ramzlarda aks etadigan til birlklari ham nazarda tutiladi. Bu holatda bir necha lingvokulturologik birlik bir vaqtning o’zida bir qancha semiotik tizimlarga tegishli bo’lishi mumkin, bunda biror bir odat frazeologizmga, maqolga yoki matalga aylanishi mumkin.

Lingvokulturologiyaning obyekti – madaniyat va tilning o’zaro aloqasi va ta’sirini yaxlitlikda tadqiq qilishdir. Lingvomadaniyatshunoslik tilni madaniyatning fenomeni, madaniyatning tashuvchisi sifatida o’rganadi. Madaniyatni esa o’sha tildan foydalanuvchi inson yaratadi. Lingvokulturologiyaning obyekti lingvistikva kulturologiya, etnografiya va psixolingvistika singari qator fundamental fanlarning kesishmasida joylashadi.[8. b, 35-36]

LINGUISTICS

Tadqiqot obyektining vaziyatidan kelib chiqib, uning alohida lingvomadaniy birliklardan tashkil topgan bir qancha predmetlarini ko'rsatish mumkin. Bularga quyidagilar misol bo'la oladi: muqobilsiz leksika va lakunalar, mifologiyalashtirilgan til birliklari, tilning paremiologik fondi, tilning frazeologik fondi, o'xshatishlar, ramzlar, stereotiplar, tilning metaforalari va obrazlari, tilning stilistik qatlami, nutqiy muomala va nutq etikasi.

Tilshunoslikda tilni obyekt sifatida grammatik va leksik tomondan tadqiq etilsa, lingvodomaniyatshunoslikda esa tilning tarixan rivojlanishi, ko'p asrlik o'tmish va mahalliy hayot tarzi ta'sirida, turli marosim, an'ana va urf-odatlar ta'sirida yuzaga kelgan so'zlarning mohiyati o'rganiladi.

Lingvomadaniyatshunoslikning mustaqil fan sohasi sifatidagi maqsadi quyidagilardan iborat:

- til konseptlari shakllanishida madaniyat qay darajada ishtirok etishini tadqiq etish;
- til belgisi ma'nuning qaysi qismiga "madaniy ma'nolar" biriktirilishini o'rganish;
- bu ma'nolar so'zlovchi va tinglovchi tomonidan anglashilish-anglashilmasligi va nutq starategiyasiga ta'sirini o'rganish;
- til egasining lisoniy-madaniy qobiliyati bor-yo'qligini tekshirish;
- konzeptosfera, ya'ni muayyan madaniyatning asosiy konseptlari yig'indisi, bir madaniyat va ko'p madaniyat egasi yo'nalgan madaniyat diskursini o'rganish;
- mazkur fanga doir asosiy tushunchalarini sistemalashtirish va terminologik apparatni yaratish [1.b, 32-34].

Xulosa. Xulosa qilib aytganda, lingvomadaniyatshunoslik globallahuv, til va madaniyatning aralashuvi asosida XX asrning o'rtalariga kelib, tilshunoslikning mustaqil bo'limi sifatida vujudga keldi. Lingvomadaniyatshunoslik va lingvokulturologiya atamalari bir xil ma'noli so'z bo'lib, inglizcha "Linguoculture" so'zining o'zbek va rus tillaridagi tarjimalari hamda yangi fan nomi hisoblanadi. Lingvomadaniyatshunoslik fani etnolingvistika, sotsiolingvistika, etnopsixolingvistika, lingvomamlakatshunoslik, madaniyatshunoslik fanlari bilan chambarchas bog'liqidir.

ADABIYOTLAR:

1. Judith Martin, Thomas Nakayama. *Intercultural communication in contexts*. -5th ed.-New York:Mc Graw-Hill, 2010.-528p.
2. Geertz.C. *The interpretation of culture*.-New-York:Basic books, 1973. – 473 p.3
3. Xafizovna R.N. (2022). *Discourse Analysis of Politeness Strategies in Literary Work: Speech Acts and Politeness Strategies*. Spanish Journal of Innovation and Integrity, 5, 123-133
4. Zokirova N.S (2020) *Translatology and the analysis of its linguistic mechanism*. European Journal of Humanities and Educational Advancements, 1(4), 8-10.
5. Nafisa K. *Cognition and Communication in the Light of the New Paradigm //European journal of innovation in nonformal education*. – 2021. – T. 1. – №. 2. – C. 214-217.
6. Ruziyeva Nilufar Xafizovna, & Xolova Madina Boboqulovna. (2022). *Politeness In Literary Works: An Overview*. Eurasian Research Bulletin, 7, 200–206.
7. Zokirova Nargiza Savrievna. (2022). *The Concept of Discourse as A Cognitive Phenomenon of Translation*. Eurasian Research Bulletin, 7, 207–211.
8. Ruzieva, N. (2022). *Негативные стратегии вежливости на английском языке*. центр научных публикаций (buxdu.Uz), 8(8).
9. Xafizovna R.N. (2023). *The Study of Context: From Static to Dynamic*. Miasto Przyszłości, 32, 242–246.
10. Xafizovna R.N. (2022). *Linguistic Politeness Theory Review*: Yueguo Gu, Sachiko Ide, Shoshena Blum Kulka, Bruce Frasher and William Nolen, Hornst Arndt and Richard Janney. Pindus Journal of Culture, Literature, and ELT, 2(5), 145–152.
11. Ruziyeva Nilufar Xafizovna, & Xolova Madina Boboqulovna. (2022). *Politeness In Literary Works: An Overview*. Eurasian Research Bulletin, 7, 200–206.